



BILIMNI SERTIFIKATLASHGA ASOSLANGAN OLIY TA'LIM TIZIMI

Safarov Alisher

Oriental universiteti

ORCID: 0000-0001-6326-5821

ali-1985.05@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada hozirgi zamon oliy ta'limidagi asosiy qiyinchiliklar ko'rib chiqilib, ularni hal qilish uchun sertifikatlashga asoslangan yangi o'quv yondashuv taklif etiladi. Unda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi sharoitida an'anaviy ta'lim uslublarning yetarli emasligi masalasi o'rganiladi. Taklif etilayotgan yondashuv talabalarning mustaqil ravishda o'qish imkoniyatlarini kengaytirishga, oliygohlar o'rtasida sog'lom bellashuvni rivojlantirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: sertifikatlash, oliy ta'lim, sun'iy intellekt, ta'lim sifati, raqamli transformatsiya, talaba markazli ta'lim.

СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, ОСНОВАННАЯ НА СЕРТИФИКАЦИИ ЗНАНИЙ

Сафаров Алишер

Университет Ориентал

Аннотация. В статье рассматриваются основные проблемы современного высшего образования и предлагается новый образовательный подход, основанный на сертификации для их решения. Анализируется несоответствие традиционных методов обучения в контексте стремительного развития искусственного интеллекта и цифровых технологий. Предложенный подход направлен на расширение возможностей студентов для самостоятельного обучения, развитие здоровой конкуренции между вузами и повышение качества образования.

Ключевые слова: сертификация, высшее образование, искусственный интеллект, качество образования, цифровая трансформация, ориентированное на студента обучение.

HIGHER EDUCATION SYSTEM BASED ON CERTIFICATION OF KNOWLEDGE

Safarov Alisher

Oriental University

Abstract. The article analyzes the problems of the modern higher education system and proposes a new educational approach based on certification as a way to solve them. The research examines the issue of the inefficiency of the traditional education system in the context of the development of artificial intelligence and digital technologies. The proposed approach is aimed at expanding students' right to independent learning, developing healthy competition among universities, and improving the quality of education.

Keywords: certification, higher education, artificial intelligence, quality of education, digital transformation, student-centered learning.

Kirish.

Kunimizda oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxasislarni tayyorlaydigan dargohlar darajasidan rasmiy hujjat olish uchun 4 yil (sirtqi bo'limlarda 5 yil) muddatni oladigan majburiy tartib (protsedura) bo'lib qoldi.

Sun'iy intellekt rivojlangan bu davrda an'anaviy dars o'tish bilan talabalarga soha bo'yicha yangi bilim berish mushkul bo'lib qoldi. Ya'ni deyarli barcha sohalar bo'yicha bilimni o'qituvchilarni bevosita ishtirokisiz olish imkoni paydo bo'ldi.

Kerakli ma'lumotni internet tarmog'i va sun'iy intellekt yordamida topish qulay bo'lib qolganligi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli, talabalar universitetni bir bilim maskani sifatida emas, 4-5 yil majbur qatnab rasmiy hujjat olinadigan bir idora sifatida ko'rib boshlashdi. Natijada hatto sitqi dildan o'qish istagida bo'lgan talabalar ham vaqt o'tishi bilan darslarni jiddiy qabul qilishmayapti. Bilim berish samaradorligi tushib ketyapti. Ayniqsa xususiy universitetlar moliyaviy barqarorlikni yo'qotib qo'ymaslik uchun "bemaza" talabalarni o'qishdan chetlatmasdan, kursdan kursga o'tkazib o'qitishga majbur bo'lyapti. Chunki shu "bemaza"lar kontrakt to'lashadi.

Bu bog'liqlik zanjiri natijasida jamiyat ilmiy salohiyati tushib, jamiyatda sifatli kadrlarimiz kamayib ketyapti.

Shiddat bilan o'zgarayotgan bu davrda yangi ta'lim tizimini joriy qilish kerak.

Adabiyotlar sharhi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasiga kirib kelishi bilan o'qitishda yangi yondashuvlar paydo bo'ldi. Bates (2019) aytganidek, zamonaviy ta'lim texnologiyalari talabalarning mustaqil bilim olish qobiliyatini sezilarli darajada oshirdi. MOOC (Massive open online courses - ko'plab ishtirokchilar uchun ochiq onlayn kurslar) platformalarining paydo bo'lishi va ommalashuvi bunga misol bo'la oladi (Hoy, 2014).

Clark va Mayer (2016) multimedia ta'limi nazariyasida turli manbalardan bilim olish imkoniyati bo'lgan talabalarning o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lishini aniqlashdi. Bu esa yangi ta'lim usullarini yaratish zarurligini bildiradi.

Rogers (1983) tomonidan ishlab chiqilgan talaba markazli ta'lim nazariyasi, har bir shaxs o'z ta'limini o'zi boshqarishi kerakligini ta'kidlaydi. Knowles (1975) o'zining andragogika nazariyasida kattalar ta'limida mustaqillik, tajriba va amaliyotga e'tibor berish zarurligini ko'rsatdi.

Zimmerman (2002) o'z-o'zini boshqaruvchi ta'lim konsepsiyasida talabalarning o'z oldiga maqsad qo'yish, uni nazorat qilish va baholash qobiliyati muhimligini ta'kidladi. Bu fikr sertifikatlash tizimining asosiy g'oyasini tashkil etadi.

Spady (1994) tomonidan taklif etilgan "Natijaga qaratilgan ta'lim" usuli jarayon emas, balki natijaning o'zi muhimligini uqtiradi. Biggs va Tang (2011) "Konstruktiv moslashuv nazariyasi" da o'qitish natijalari, usullari va baholash o'rtasidagi muvofiqlik muhim ekanligini aytishdi.

Harden (2002) tibbiyot sohasida malakaga asoslangan yondashuv bo'yicha olib borgan ishlarida aniq ko'rsatkichlarga asoslangan baholashning afzalliklarini isbotladi. Bu usul turli sohalarda qo'llanilmoqda (Frank va boshq., 2010).

Sertifikatlash tizimi butun dunyoda keng qo'llaniladi. IELTS va TOEFL til bilish sertifikatlari (Educational Testing Service, 2021), professional sertifikatlar (masalan, IT sohasida Microsoft, Cisco, AWS) soha bo'yicha bilim darajasini xalqaro miqyosda tasdiqlash vositasi hisoblanadi (Adelman, 2009).

Yevropa Ittifoqida Yevropa malakalar doirasi (European Qualifications Framework - EQF) mavjud bo'lib, u har xil davlatlardagi ta'lim natijalari va malakalarini solishtirishga yordam beradi (Cort, 2010). Avstraliya malakalar doirasi (Australian Qualifications Framework - AQF) ham shu tamoyillarga asoslangan (Australian Qualifications Framework Council, 2013).

UNESCO (2014) ma'lumotlariga ko'ra, moslashuvchan ta'lim hozirgi zamon oliy ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Avvalgi ta'limni baholash va tan olish (Prior Learning Assessment and Recognition (PLAR)) tizimi kanadada keng qo'llaniladi va shaxsning oldingi tajribasi va bilimlarini rasman tan olish imkonini beradi (Conrad, 2008).

Kredit-bank tizimi (Credit Bank System) janubiy koreyada yaxshi natijalar berdi, u talabalarining turli joylarda to'plagan kreditlarini bir joyda jamlash va diplom olishda ishlatish imkoniyatini beradi (Yang & Lee, 2013).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada turli ilmiy manbalar o'rganilib, analiz va sintez metodlaridan foydalanilgan holda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi oliy ta'lim tizimidagi muammolar

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarining o'qishga bo'lgan qiziqishi yildan-yilga pasayib bormoqda (Kusurkar va boshq., 2013). Ryan va Decining (2000) "O'z taqdirini o'zi belgilash nazariyasi" shuni ko'rsatdiki, tashqi majburlash ichki qiziqishni susaytiradi. Darslarga majburiy qatnash ana shunday tashqi majburlashlardan hisoblanadi.

Kuh (2009) talabalarining faol ishtirokini o'rganib, majburiy tizimlar bu faollikni kamaytirishi mumkin degan xulosaga keldi. O'zbekiston sharoitida bu muammo yanada keskinroq namoyon bo'lmoqda, chunki talabalar universitetni faqat diplom olish uchun boriladigan bir joy deb bilishadi.

Gibbs (2010) katta guruhlarda ta'lim sifatining pasayishi bo'yicha tadqiqot o'tkazdi va har bir talabaga alohida yondashish muhimligini ta'kidladi. Xususioliyoghlarda moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun sifatga e'tibor kamaymoqda - bu Trow (1973) ta'riflagan ommaviy ta'lim muammosining yaqqol namunasidir. O'zbekistonda ham talabalarni avtomatik ravishda kursdan kursga o'tkazish ta'lim standartlarining pasayishiga olib kelmoqda.

Darslarga majburiy qatnash barcha talabalar uchun bir xil vaqt rejasini talab qiladi, bu esa ularning individual xususiyatlarini hisobga olmaydi (Tomlinson, 2014). Hattie (2012) ta'lim samaradorligini o'rganish jarayonida individual tezlik va uslub muhim degan xulosaga keldi.

Barr va Tagg (1995) ta'limda o'qitishdan o'rganishga o'tish zarurligini ta'kidlashdi. An'anaviy tizim esa hali ham o'qituvchi markazli bo'lib qolmoqda, bu esa zamonaviy talablarga mos kelmaydi.

Yechim sifatida biz fanlar bo'yicha sertifikatsiya tizimini joriy qilishni taklif etamiz.

Unga ko'ra:

1. Talabalar o'zlari istagan yo'nalish bo'yicha istalgan universitetda ro'yxatdan o'tishadi.
2. Ro'yxatdan o'tgan talabalarga universitet tanlangan yo'nalish bo'yicha mutaxassis bo'lishlari uchun
 - necha kredit,
 - qaysi fanlar (kurslar)ni,
 - ushbu fanlar bo'yicha qaysi mavzularni o'zlashtirilishi (bu yerda dastur sifatida tayanch universitetlar sillabuslari beriladi) kerakligi ma'lumoti beriladi.
3. Talabalarda darsga qatnash majburiyati bo'lmaydi. Ular o'zlari istagan shaklda belgilangan kursni o'zlashtirish imkoni bo'ladi.
4. Kursni to'liq o'zlashtirgan talabalar oldindan ro'yxatdan o'tgan holda o'zlariga ma'qul vaqtda huddi IELTS, TOEFL, matematika, fizika, ximiya fanlari bo'yicha olinadigan milliy sertifikatlar singari imtixon topshirishadi.
5. Tanlangan ta'lim yo'nalishi bo'yicha jami nechta kurs (fan) o'zlashtirilishi kerak bo'lsa, barchasi bo'yicha sertifikatga ega bo'lishlari kerak bo'ladi diplom olish uchun.
6. Hozir bakalavr yo'nalishi 4 yillik bo'lsa, sertifikat tizimida kurslar bo'yicha olingan birinchi sertifikat muddati 4 yildan oshib ketmasligi kerak. Oshib ketsa yangidan imtixon

topshirib, sertifikat olishi kerak bo'ladi. Shunda talabalar o'qishni ko'p cho'zmasdan bitirishga harakat qilishadi.

7. Asosiy to'lovlar imtixon uchun to'lanadi IELTS, TOEFL sertifikatlaridagi singari.

8. Mustaqil tayyorlana olmaydiganlar xuddi ta'lim markazlaridagi singari universitet kurslariga yozilib, to'lov asosida o'qishadi.

Yangi ta'lim tizimini asosiy ustunliklari:

1. Majburiy darsga qatnash talablari bo'lmaydi. Universitet talabalabalarini "ko'tidan" poylab – nega darsga kelmading – deb yo'qlama qilmaydi. **Universitet majburiyatlari kamayadi.**

2. Talabalar o'zlari istaganday vaqt taqsimotini qilib, o'zlariga ma'qul vaqtda imtixonga tayyorlanishadi. O'z vaqt me'yorlarini o'zlari rejalashtirib, har qanday oqibat uchun o'zlari javob berishini anglaydigan, **mustaqil qaror olish ko'nikmasiga mutaxassislar bo'lib chiqishadi.**

3. Har bir talaba qobiliyati va boshqa imkoniyatiga qarab tanlangan yo'nalishni **eplasa 2 yilda ham bitirish imkoniga ega bo'ladi.** Muhimi yo'nalish bo'yicha o'zlashtirilishi kerak bo'lgan barcha kurslarda sertifikatga ega bo'lsa bo'ldi.

4. Universitetlar talabalarni izidan quvib yurmaydi. Kimga kerak bo'lsa o'zi o'qiydi.

5. Universitetlarni asosiy vazifasi (kimda imtixon olish huquqi bo'lsa) dars o'tish emas, **kurs bo'yicha talabgorni malaka darajasini yuqori darajada aniqlaydigan sifatli savollarni shakllantirishdan iborat bo'ladi.**

6. Sertifikatsiya tizimida obyektiv ravishda faqat belgilangan talabni bajara olganlar bitirgani uchun **mutaxassislar sifati ancha yuqori bo'ladi.**

7. Ta'lim dasturlari tayanch universitetlarga qarab shakllantirilgani talabalar qayerda ro'yxatdan o'tganliklaridan qat'iy nazar istalgan joyda (sertifikat uchun imtixon olish huquqiga ega bo'lsa bo'ldi) ma'lum bir kurs bo'yicha sertifikat olish uchun imtixon topshirishi mumkin bo'ladi.

8. Universitetlar asosan turli kurslar bo'yicha sertifikatga tayyorlo'vchi markazlar maqomiga o'tishgani uchun **qaysi kurs qaysi universitetda yaxshi o'tilib sertifikat olishga yordam bersa, shu yerda istalgan kurslarni olish imkoni bo'ladi.**

9. **Universitetlar o'rtasida sog'lom raqobat rivojlanadi.**

10. Universitetlarda yo'nalishlar bo'yicha emas, **kurslar kesimida chuqur ixtisoslashuv bo'ladi.**

11. Sertifikatsiya tizimida **diplomlarimiz xalqaro darajada tan olinishi imkoni bo'ladi,** xuddi IELTS, TOEFL sertifikatlari singari, agar to'g'ri tashkil etilsa.

Xulosa va takliflar.

Sertifikatlashga asoslangan ta'lim tizimi zamonaviy talablarga va texnologiyalarga mos keladigan modeldir. Nazariy jihatdan olganda, u talaba markazli ta'lim (Rogers, 1983), natijaga yo'naltirilgan baholash (Spady, 1994) va o'z-o'zini boshqarish (Zimmerman, 2002) tamoyillariga asoslanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moslashuvchan va sertifikatlashga asoslangan tizimlar samarali ishlaydi (Yang & Lee, 2013; Cort, 2010). O'zbekiston uchun bu yangi model quyidagi afzalliklarni beradi:

- Talabalarning o'qishga qiziqishi va mas'uliyati ortadi;
- ta'lim sifati baholash orqali nazorat qilinadi;
- oliy o'quv yurtlari o'rtasida raqobat kuchayadi;
- iqtisodiy jihatdan foydasi ortadi;
- xalqaro tan olinish imkoniyati paydo bo'ladi.

Tizimni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Avval 2-3 yo'nalishda sinov tariqasida o'tkazish (Rogers, 2003).
2. Zamonaviy raqamli platforma yaratish (Bates, 2019).

3. Psixometrik ekspertiza asosida imtihon savollari bankini shakllantirish (Hambleton & Swaminathan, 1985).
4. Ularni yangi tizimda ishlashga o'rgatish (Fullan, 2007).
5. Tegishli qonun va hujjatlarni ishlab chiqish.
6. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish va tajriba almashish (Altbach & Knight, 2007).

Ushbu yangi tizim O'zbekiston oliy ta'limini XXI asr talablariga moslashtiradi va jahon ta'lim maydoniga qo'shilishiga yordam beradi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

- Biggs, J., & Tang, C. (2011). *Teaching for Quality Learning at University* (4th ed.). McGraw-Hill Education.
- Barnett, R. (2011). *Being a University*. Routledge.
- Barr, R. B., & Tagg, J. (1995). *From teaching to learning: A new paradigm for undergraduate education*. *Change: The Magazine of Higher Learning*, 27(6), 12-26.
- Bates, A. W. (2019). *Teaching in a Digital Age* (2nd ed.). Tony Bates Associates Ltd.
- Delors, J. (1996). *Learning: The Treasure Within*. UNESCO.
- Frank, J. R., Snell, L. S., Cate, O. T., Holmboe, E. S., Carraccio, C., Swing, S. R., ... & Harden, R. M. (2010). *Competency-based medical education: theory to practice*. *Medical Teacher*, 32(8), 638-645.
- Fullan, M. (2007). *The New Meaning of Educational Change* (4th ed.). Teachers College Press.
- Gibbs, G. (2010). *Dimensions of Quality*. Higher Education Academy.
- González, J., & Wagenaar, R. (Eds.). (2008). *Universities' Contribution to the Bologna Process: An Introduction*. Publicaciones de la Universidad de Deusto.
- Hambleton, R. K., & Swaminathan, H. (1985). *Item Response Theory: Principles and Applications*. Springer Science & Business Media.
- Harden, R. M. (2002). *Developments in outcome-based education*. *Medical Teacher*, 24(2), 117-120.
- Harvey, L. (2000). *New realities: The relationship between higher education and employment*. *Tertiary Education & Management*, 6(1), 3-17.
- Hase, S., & Kenyon, C. (2000). *From andragogy to heutagogy*. *UltiBase Articles*, 5(3), 1-10.
- Hattie, J. (2012). *Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning*. Routledge.
- Hoy, M. B. (2014). *MOOCs 101: An introduction to massive open online courses*. *Medical Reference Services Quarterly*, 33(1), 85-91.
- Knowles, M. S. (1975). *Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers*. Association Press.
- Kuh, G. D. (2009). *What student affairs professionals need to know about student engagement*. *Journal of College Student Development*, 50(6), 683-706.
- Kusurkar, R. A., Ten Cate, T. J., Vos, C. M. P., Westers, P., & Croiset, G. (2013). *How motivation affects academic performance: a structural equation modelling analysis*. *Advances in Health Sciences Education*, 18(1), 57-69.
- Kotter, J. P. (1996). *Leading Change*. Harvard Business Press.
- Newton, P. E. (2007). *Clarifying the purposes of educational assessment*. *Assessment in Education*, 14(2), 149-170.
- Raffe, D. (2009). *The Action Plan, Bologna, and the relationship between VET and higher education*. *European Journal of Education*, 44(4), 547-561.
- Rogers, E. M. (2003). *Diffusion of Innovations* (5th ed.). Free Press.
- Rogers, C. R. (1983). *Freedom to Learn for the 80's*. Charles E. Merrill Publishing Company.
- Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). *Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being*. *American Psychologist*, 55(1), 68-78.

- Siemens, G., & Gašević, D. (2012). Guest editorial-Learning and knowledge analytics. *Journal of Educational Technology & Society*, 15(3), 1-2.
- SkillsFuture Singapore. (2016). *SkillsFuture: Skills Mastery*. Singapore Government.
- Sadlak, J. (1998). *Globalization and Concurrent Challenges for Higher Education*. UNESCO-CEPES.
- Sadler, D. R. (2009). Indeterminacy in the use of preset criteria for assessment and grading. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 34(2), 159-179.
- Sahlberg, P. (2011). *Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* Teachers College Press.
- Salmi, J. (2009). *The Challenge of Establishing World-Class Universities*. World Bank Publications.
- Selwyn, N. (2019). *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education*. Polity Press.
- Spady, W. G. (1994). *Outcome-Based Education: Critical Issues and Answers*. American Association of School Administrators.
- Trow, M. (1973). *Problems in the transition from elite to mass higher education*. Carnegie Commission on Higher Education, Berkeley, CA.
- Tomlinson, C. A. (2014). *The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners* (2nd ed.). ASCD.
- UNESCO. (2014). *Teaching and Learning: Achieving Quality for All*. UNESCO.
- Witte, J. K. (2006). Change of degrees and degrees of change: Comparing adaptations of European higher education systems in the context of the Bologna Process. CHEPS.
- Weir, C. J. (2005). *Language Testing and Validation: An Evidence-Based Approach*. Palgrave Macmillan.
- World Economic Forum. (2020). *The Future of Jobs Report 2020*. WEF.
- Yang, J., & Lee, Y. (2013). *The Credit Bank System in the Republic of Korea: Facilitating lifelong learning*. UNESCO Institute for Lifelong Learning Policy Brief, 2, 1-8.
- Adelman, C. (2009). *The Bologna Process for U.S. Eyes: Re-learning Higher Education in the Age of Convergence*. Institute for Higher Education Policy.
- Altbach, P. G., & Knight, J. (2007). The internationalization of higher education: Motivations and realities. *Journal of Studies in International Education*, 11(3-4), 290-305.
- Andrade, E. C. (2011). *The Brazilian National High School Exam (ENEM): An analysis of objectives and results*. Educational Testing Service.
- Australian Qualifications Framework Council. (2013). *Australian Qualifications Framework* (2nd ed.). Commonwealth of Australia.
- Educational Testing Service. (2021). *TOEFL iBT Test Content*. ETS.
- European Commission. (2015). *The European Higher Education Area in 2015: Bologna Process Implementation Report*. Publications Office of the European Union.
- Osam, E. K., Bergman, M., & Cumberland, D. M. (2017). An integrative literature review on the barriers impacting adult learners' return to college. *Adult Learning*, 28(2), 54-60.
- OECD. (2014). *Education at a Glance 2014: OECD Indicators*. OECD Publishing.
- Pink, D. H. (2009). *Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us*. Penguin.
- Parkinson, C. N. (1957). Parkinson's law. *The Economist*, 19, 635-637.
- Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press.
- Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). *E-learning and the Science of Instruction* (4th ed.). John Wiley & Sons.
- Conrad, D. (2008). Building knowledge through portfolio learning in prior learning assessment and recognition. *Quarterly Review of Distance Education*, 9(2), 139-150.
- Cort, P. (2010). Stating the obvious: The European Qualifications Framework is not a neutral evidence-based policy tool. *European Educational Research Journal*, 9(3), 304-316.